

TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bozorova Gulruh Furqat qizi

Webster University MA TESOL program

E-mail: gulruhbozorova695@gmail.com

Kirish: Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalq tafakkuri, madaniy xotirasi va ijtimoiy ongining mujassam ifodasidir. Har bir millatning tili o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik tizimga ega bo'lishi bilan bir qatorda, u xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashini ham o'zida ifoda etadi. Ayniqsa, sotsiomadaniy birliklar tilda milliy mentalitet, turmush tarzi va sivilizatsion xususiyatlarning yorqin namoyoniga aylanadi. Ushbu birliklar orqali til egasining jamiyatdagi o'rni, qadriyatlarga munosabati, axloqiy-estetik mezonlari va madaniy qarashlari aniqlanadi. Sotsiomadaniy birliklar jumlasiga realiyalar, frazeologizmlar, madaniy konnotatsiyali so'zlar, metaforalar, xalq og'zaki ijodiy birliklari va milliy ramziy ifodalar kiradi. Ular til tizimining sathlarida chuqur ildiz otgan bo'lib, tarjima jarayonida yoki boshqa til vakillari bilan muloqotda muayyan madaniy to'siqlar keltirib chiqaradi. Chunki har bir tilda sotsiomadaniy birliklar o'z tarixiy-madaniy konteksti asosida shakllanadi va faqat lingvistik emas, balki madaniy anglashni ham talab qiladi. Turli tizimli tillar – masalan, ingliz, rus va o'zbek tillarida sotsiomadaniy birliklarning shakllanishi va ishlatilishida muhim farqlar mavjud. Bular sintaktik tuzilish, leksik yasaliş, madaniy asos, diniy e'tiqodlar, tarixiy tajriba va xalq psixologiyasi bilan belgilanadi. Natijada bir til uchun odatiy bo'lgan sotsiomadaniy birlik, boshqa til uchun tushunarsiz yoki notabiiy bo'lishi mumkin. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv, tillararo o'zaro ta'sir, tarjima amaliyoti va madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida sotsiomadaniy birliklarni chuqur o'rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Ularni o'rganish orqali nafaqat tilshunoslik masalalari hal etiladi, balki madaniyatlararo tushunish, millatlararo muloqot va til o'rgatish metodikasida ham samarali natijalarga erishish mumkin.

Asosiy qism: Sotsiomadaniy birlik tushunchasi va uning ahamiyati Sotsiomadaniy birliklar deb muayyan xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, e'tiqodlari, urf-odatlar, tarixiy tajribasi asosida shakllangan leksik-semantik birliklarga aytiladi. Bular asosan frazeologizmlar, metaforalar, realiyalar, kinoyaviy ifodalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Misol uchun, ingliz tilidagi “a storm in a teacup” iborasi va o'zbek tilidagi “pashshadan fil yasamoq” iboralari bir xil ma'noni anglatadi-da, har ikki tilning madaniy asoslariga tayangan holda shakllangan. Turli tizimli tillardagi shakllanish o'ziga xosligi til tizimi – bu nafaqat grammatik qoidalar va so'z yasaliş me'yorlari yig'indisi, balki xalq tafakkurining, tarixiy xotirasining,

dunyoni idrok etish shaklining natijasidir. Sotsiomadaniy birliklarning shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi: Geografik va iqlimiy omillar: Masalan, o'zbek tilida "qum bo'roni kabi" degan ibora tabiiy hodisalarga asoslanadi, ingliz tilida esa "as cold as ice" kabi iboralar iqlimga bog'liq. Tarixiy tajriba va urf-odatlar: Rus tilidagi "Иван да Марья" (mashhur folklor obrazlari) va o'zbek tilidagi "Layli va Majnun" (ishqiy timsollar) kabi birliklar turli tarixiy manbaalarga tayanadi. Diniy va ma'naviy qarashlar: Masalan, islom madaniyatida muqaddas sanalgan tushunchalar (halol, harom) o'zbek tilida keng ifodalansa, xristian madaniyatiga asoslangan birliklar (e.g., "prodigal son") ingliz tilida faol ishlatiladi. Tarjimadagi muammolar va mos ekvivalentlar izlash Sotsiomadaniy birliklarning boshqa tilga tarjimasi jarayonida ko'plab lingvokulturologik muammolar yuzaga keladi. Ayniqsa, bevosita ekvivalenti mavjud bo'lmagan birliklar tarjimada izohli yoki moslashtirilgan tarzda berilishi zarur. Masalan: O'zbek tilidagi "qozon-tovoqni bir qilmoq" iborasi ingliz tilida "to marry" tarzida qisqa ifodalansa-da, asl sotsiomadaniy mazmunini to'liq bera olmaydi. Ingliz tilidagi "white elephant" iborasi o'zbek tilida "keraksiz, foydasiz sovg'a" tarzida izohlanadi, lekin mazkur iboraning tarixiy ildizi Janubi-Sharqiy Osiyo madaniyatiga borib taqaladi. Shuning uchun tarjimada kontekstga mos ekvivalent topish, madaniy izoh berish, ba'zi hollarda esa transkreatsiya (yaratuvchan tarjima) usulidan foydalanish lozim bo'ladi. Sotsiomadaniy birliklarning jamiyatdagi funktsiyasi Bu birliklar nafaqat tildagi estetik boylikni oshiradi, balki jamiyat a'zolari orasida o'zaro anglashuvni mustahkamlaydi. Ular milliy xotirani saqlash, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda vositachilik qiladi. Masalan, har bir xalqda bolaga atalgan laqablar, muomala shakllari, marosimlar til orqali aks etadi: o'zbek tilidagi "ko'ngilni ovlamoq" iborasi va ingliz tilidagi "to win someone's heart" iborasi shunday sotsiomadaniy birliklar sirasiga kiradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, turli tizimli tillarda sotsiomadaniy birliklar xalqning madaniy xotirasi, dunyoqarashi va tarixiy tajribasiga tayangan holda shakllanadi. Ularning tilda aks etish usullari farqli bo'lsa-da, asosiy vazifasi jamiyat hayotidagi madaniy axborotni uzatish va mustahkamlashdan iborat. Tarjima jarayonida bu birliklarga ehtiyotkorlik bilan yondashish, ularning mazmunini madaniy kontekstda anglab, mos ifodalarni tanlash lozim. Bu jarayon tilshunosdan nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham talab etadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullayeva, G. (2015). Frazologizmlarning milliy va umuminsoniy xususiyatlari. Toshkent: Muharrir.
2. Mamajonov, A. (2007). O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan.
3. Kussmaul, P. (1995). Training the Translator. John Benjamins Publishing.
4. Yusupov, U. (2009). Tarjimashunoslik va interferensiya masalalari. Toshkent: Fan.